

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

ALIMENT VA TA'MINOT: ULARNING O'ZARO FARQLI JIXATLARI

Usmonova Mahliyo Sobirjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti huquq ta'lim kafedrası
katta o'qituvchisi, y.f.f.d. (PhD)*

Tel: +998886309328, +998905309328

E-mail: usmonovamahliyo540@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakatimizda so'nggi yillarda oila huquqi fani doirasida oilaviy nizolarini hal etish bilan bog'liq bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilganligi e'tiborga loyiq. Biroq har qanday sohada kamchilik bo'lgani kabi, oila qonunchiligining alimentga oid institutini nazariy jixatdan tartibga solish alohida e'tibor talab etadi. Maqolada, aliment va ta'minot masalalari yuzasidan baxsli holatlar ochib berilgan. Muallifning ushbu sohaga oid shaxsiy pozitsiyasi bildirilgan.

Abstract. It is noteworthy that in recent years a number of studies have been conducted in our country in the field of family law related to the resolution of family disputes. However, like any problematic area, the theoretical regulation of the institution of alimony in family law requires special attention. The article reveals controversial situations related to issues of alimony and maintenance. The author's personal position on this issue is expressed.

Абстрактный. Примечательно, что в последние годы в нашей стране проводится ряд исследования в области семейного права, связанные с разрешением семейных споров. Однако, как и любая проблемная область, теоретическое регулирование института алиментов в семейном праве требует особого внимания. В статье раскрываются спорные ситуации, связанные с вопросами алиментов и содержания. Выражена личная позиция автора по данному вопросу.

Kalit so'zlar: oila, oila huquqi, kelishuv, fuqarolik-huquqiy munosabat, aliment, ta'minot, majburiyat, qonun.

Keywords: family, family law, contract, civil legal relations, alimony, maintenance, obligation, law

Ключевые слова: семья, семейное право, договор, гражданские правоотношения, алименты, содержание, обязательство, закон

Kirish

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy davlat deb e'lon qildi, uning siyosati inson va fuqaroning munosib hayoti va erkin

rivojlanishini ta'minlash uchun sharoit yaratishga qaratilgan. U O'zbekistonning yangi siyosiy va iqtisodiy tizimini mustahkamladi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi va ichki qonunchilikda xalqaro huquqning ustuvorligi e'lon qilinishi bilan O'zbekiston hududida ilgari amalda bo'lgan ko'plab qonunlarni isloh qilish zarurati keskinlashdi. Islohot huquqning turli sohalariga, jumladan, oila huquqiga ham ta'sir ko'rsatdi. So'nggi yillarda oila qonunchiligidagi eng muhim o'zgarishlar oila a'zolari o'rtasidagi aliment munosabatlarini tartibga solishga nisbatan yangi yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Aliment majburiyatlari instituti oila huquqining eng muhim institutlaridan biridir. Zamonaviy sharoitda aliment to'lash bo'yicha huquqiy munosabatlar juda ziddiyatli xarakterga ega va shuning uchun davlat ahamiyatiga ,olik munosabatlar hisoblanadi. Oila huquqining ushbu sohasidagi huquqiy nizolar har doim to'g'ri yechimni topishi kerak, chunki eng kam ijtimoiy himoyalangan fuqarolarning hayotiy ehtiyojlari va farovonligini ta'minlash ko'pincha bunga bog'liq.

Metodologiya

Afsuski, sezilarli vaqt davomida mahalliy yuridik adabiyotlarda aliment majburiyatlaridan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni o'rganishga etarlicha e'tibor berilmadi. Bu masalalarga bag'ishlangan bir qancha qo'llanmalar, kitoblar, maqolalar, asosan, sovet davrida, o'tgan asrning 50-60-yillarida yozilgan.

Aliment to'lash bilan yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlar haqida gap ketar ekan, uning boshqa huquq tarmog'i bilan bog'liqligi borasida huquqshunos olimlar turlicha yondashishadi. Professor O.Oqyulov oila huquqi alohida huquq tarmog'i sifatida tan olingan taqdirda ham, uni fuqarolik huquqi bilan genetik (irsiy) aloqasini inkor etish mumkin emasligini, aliment to'lash bo'yicha vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni fuqarolik huquqiy majburiyatlar orqali vujudga keladigan mohiyatga ega ekanligini inkor etib bo'lmaydi, deb ta'kidlasa; A.P. Sergeyeva, Yu.K. Tolstoy ham aliment to'lash to'g'risidagi bitimga fuqarolik-huquqiy shartnoma sifatida baho berishadi. Professor F.Otaxo'jayev va Sh.Yuldashevalar ushbu fikrni inkor etib, oilaviy-huquqiy munosabatlar o'zining ba'zi bir belgilari bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga o'xshab ketishini, biroq bu o'xshashlik faqat tashki ko'rinishda ekanligini, mazmunan oilaviy va fuqarolik-huquqiy munosabatlar o'rtasida muhim sifat va farqlar borligini, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning asosini mulkiy munosabatlar tashkil etsa, oilaviy-huquqiy munosabatlarning asosini esa, aksincha, mulkiy bo'lmagan nomulkiy shaxsiy munosabatlar tashkil etishini ta'kidlashgan. Shuningdek, ushbu olimlar oilaviy-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos jihati sifatida ushbu munosabatlarning muddatsiz va davomli ekanligini hamda bu turdagi oilaviy-huquqiy munosabatlar doirasida subyektiv huquq va majburiyatlar boshqa shaxslarga o'tmasligini ham alohida ta'kidlaydilar. Masalan, agar ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar bolalar ustidan bo'ladigan nazoratni bolalarni boquvchi boshqa xotinga topshirsalar, u holda bu boshqa shaxslarga ota-onalik huquqi o'tkazilganligini anglatmaydi.

P.V.Krashennikova, B.Gongalo, L.Yu.Mixeyevalar aliment to‘lash haqidagi kelishuvni fuqarolik-huquqiy shartnoma sifatida e‘tirof etib, bu kelishuvning quyidagi belgilarini sanab o‘tishadi:

- beg‘araz, ya‘ni bir tomon boshqa tomonga biror bir narsani olmasdan berish majburiyatini oladi;
- bir tomonlama, ya‘ni bir tomon javobgar, boshqa tomon esa uning bajarilishini talab qilishga haqli;
- konsensual, ya‘ni qonun hujjatlarida belgilangan shaklda shartnoma bo‘yicha kelishuvga erishilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

M.V.Anatolskoyning fikriga ko‘ra, aliment to‘lash to‘g‘risidagi bitim fuqarolik-huquqiy bitimning bir turi hisoblanadi.

Biroq bunday fikr bilan kelishib bo‘lmaydi deb inkor etadi Yu.F.Bespalov. Uning fikricha, o‘z tabiatiga ko‘ra aliment to‘lash bo‘yicha kelishuvlar fuqarolik-huquqiy shartnomadan keskin farq qiladi. Shartnoma qoidalari bo‘yicha ularni tuzish, o‘zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topish tartibining o‘xshashligi ushbu shartnomalarni fuqarolik-huquqiy bitim sifatida tasniflash uchun yetarli asos bermaydi.

X.B.Abduraxmonovanning fikricha, “aliment oilaviy-huquqiy munosabat hisoblanib, bir oila a‘zolarining ikkinchi oila a‘zosiga sud qarori yoki o‘zaro kelishuviga ko‘ra majburan to‘lanadigan pul miqdorini anglatadi”.

Natijalar

Bir qarashda ushbu muammo oddiy tuyulsa-da, doimiy daromadga ega bo‘lmagan fuqarolarni aliment to‘lashi jiddiy muammoligicha qolmoqda. Ayniqsa, bu “xufyona iqtisodiyot” elementlari mavjudligi, soliqdan qochish, daromadni yashirish holatlari bilan ham chambarchas bog‘liq. Mazkur holatda qonun chiqaruvchi faqatgina ehtiyojmand, nogiron, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni ushbu majburiyatdan ozod qiladi. Mehnatga layoqatli bo‘lgan fuqarolar, garchi rasmiy daromadga ega bo‘lmasa-da, aliment to‘lash majburiyatidan ozod qilinmaydi. Qolaversa, daromadni yashirish, turli huquqlar cheklanmasligi (masalan, avtotransportdan foydalanish huquqi cheklanmasligi) aliment majburiyatlarini bajarilmay qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Aksincha, ommaviy-huquqiy ta‘sir choralari, masalan, ma‘muriy qamoq jazosining aliment to‘lamaganlik uchun javobgarlik sifatida belgilanishi ma‘lum darajada o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Biroq bu ham muammoning samarali yechimi deyish qiyin.

Fuqarolar aliment to‘lay olmagan hollarda odatda huquqiy amaliyotda boshqa shaxslar, xususan, bobo-buvilar yoki ayolning oila a‘zolari – aka-ukalari tomonidan moddiy yordam ko‘rsatish holatlari mavjud. Bir tarafdin olib qaraganda, aliment to‘lay olmagan fuqarodan aliment talab qilish urf-odatimizga ziddek tuyuladi. Biroq ushbu aliment voyaga yetmagan bolalar manfaati yuzasidan zarurligini e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Demak, aliment to‘lay olmagan fuqarolarga mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyatini berish nisbatan qulay huquqiy yechim hisoblanadi.

Aliment fondini tashkil qilish ham yechim sifatida ko‘rilishi mumkin. Bir qator boshqa mamlakatlarda, masalan, Shvetsiyada ijtimoiy sug‘urta agentligi mavjud bo‘lib, u aliment fondi funksiyalarini bajaradi. Davlat ota-onalari muayyan holatlar tufayli o‘z vazifalarini bajara olmaydigan bolalarni boqish va saqlashga majburdir. Bunday sabablarga quyidagilar kiradi: ota-onalar aliment miqdori bo‘yicha kelisha olmagan holatlar; tomonlardan birining aliment to‘lash uchun mablag‘lari yo‘qligi va shu kabilar.

Muhokama qismi

Aksariyat yuridik adabiyotlarda ta‘minotga aliment sifatida qaraladi, boshqa toifa olimlar esa aliment undirishni ta‘minotning bir shakli sifatida e‘tirof etadi.

Huquqshunos olimlar O.S.Ioffe, Ye.A.Posse, T.A.Fadeyeva, A.M.Nechayevalar “ta‘minot” va “aliment”ni bir-biridan farqlab, “ta‘minot” kengroq tushuncha ekanligini ta‘kidlaydilar.

Yu.F.Bespalov yuqoridagi ikki tushunchaning farqli jixatlarini sanab, aliment bolaning hatto eng zarur ehtiyojlarini qanoatlantirmasligi mumkinligi, lekin ta‘minot eng zarur bo‘lgan yordam turlaridan chetga chiqishi mumkin (oziq-ovqat, kiyim-kechak, o‘quv qurollari bilan ta‘minlash)ligini ta‘kidlaydi. Majburiy tartibda undiriladigan alimentlar – bu faqat pul mablag‘lari bo‘lib, ularning miqdori oz va yuqorida aytib o‘tilganidek, har doim ham bolaning ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emas.

Bizningcha ham, yuqorida qayd etganimizdek, “ta‘minot” kengroq tushunchadir, aliment ta‘minotning bir shakli bo‘lib, ta‘minot sifatida boshqa pullik xarakterga ega bo‘lmagan, natura shaklida turli xil ehtiyojni ta‘minlovchi predmetlar, buyumlar ham undirilishi mumkin. Natura shaklidagi ta‘minotning undirilishi asosan er va xotin tomonidan mediatsiya kelishuviga erishilganda amalga oshirilishi mumkin.

A.M.Nechayeva alimentni tavsiflab, quyidagilarni qayd etadi:

- bolaning oilada mavjud bo‘lishi uchun bir manba bo‘lib xizmat qiladi;
- voyaga yetmaganlarni ta‘minlash uchun shartli ravishda qat’iy belgilarga ega;
- muntazam ravishda to‘lanadi, ota-onalarni har birining ularning iqtisodiy farovonligi darajasidan qat’iy nazar, majburiyatini ifodalaydi;
- mutlaqo shaxsiy xarakterga ega;
- bolaga uning ota-onasi berishga qodir bo‘lgan moddiy xavfsizlik darajasini saqlab qolishga imkon beradi, bolaning tug‘ilishidan boshlab to u voyaga yetguniga qadar to‘lab boriladi.

Er va xotin kelgusida nikohdan ajrashgan taqdirda aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzishi mumkinligi amaldagi qonunchiligimizda belgilab qo‘yilgan.

Professor O.Oqyulovning fikricha, aliment to‘g‘risidagi kelishuv hadya shartnomasiga o‘xshab ketadi, aliment to‘g‘risidagi kelishuv bir tomonlama majburiyat hisoblanadi. Ya‘ni aliment to‘lovchida aliment to‘lash majburiyati aliment oluvchida esa aliment to‘lanishini talab qilish huquqi mavjud. Professor B.Gongalo va F.Otaxo‘jayevlar ham aliment majburiyatlari tekin va bepul xarakterda ekanligini ko‘rsatib o‘tishgan.

Xulosa

Bizningcha, aliment majburiyatlari bilan bog‘liq munosabatlar sof oilaviy-huquqiy munosabatlar bo‘lib, mulkiy munosabatlar nafaqat fuqarolik-huquqiy munosabatlar bilan bog‘liq, balki mehnat-huquqiy munosabatlarga ham daxl qilib, mehnat huquqi ham alohida huquq tarmog‘i bo‘lgani singari, oilaviy-huquqiy munosabatlar ham o‘ziga xos alohidalikka ega. Bundan tashqari, oilaviy-huquqiy munosabatlar subyektlari o‘rtasida qon-qarindoshlik rishtalari mavjud bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro ichki his-tuyg‘ular asosida yuzaga keladi.

Qolaversa, yuqoridagilardan kelib chiqsak, aliment to‘lash majburiy, ya’ni imperativ xarakterga ega hisoblanib, uni bir tomonlama bekor qilish mumkin emas. Ya’ni bajaruvchida aliment to‘lash majburiyatini bekor qilish huquqi bo‘lmaydi, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda esa har qanday shartnomani bir tomonlama bekor qilish yoki uni haqiqiy emas deb topish orqali majburiyatlar bajarilishidan ozod bo‘lish huquqi mavjud.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Oqyulov O. va boshqalar. Ayollar va bolalar mulkiy manfaatlarini aliment munosabatlari orqali ta’minlash masalalari. – T.: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 8.
2. Сергеев А.П., Толстой Ю.К. Гражданское право: Учебник. – М., 2005. – С. 569
3. Otaxo‘jayev F., Yo‘ldosheva Sh.. Oila huquqi. – T.: Adolat, 2007. – B. 84.
4. Гангало Б.М. и другие. Семейное право. Учебник. – М.: 2008. – С. 194.
5. Кузнецова И.М. Комментарий. Семейный кодекс РФ. – М.: Бек, 1996. – С. 276.
6. Беспалов Ю.Ф. Защита гражданских и семейных прав ребенка в Российской Федерации. Учебно-практическое пособие. – М.: Ось-89, 2004. – С. 112
7. Abduraxmonova X.B. Ota-ona va bolalar aliment huquqlari va majburiyatlarining kollizion tartibga solinishi. – T.: TDYuI, 2015. – B. 11
8. Мязина Ю.С. Алиментное обязательство на несовершеннолетних детей. Сравнительный анализ российского права и стран Европейского союза / Ю.С.Мязина, Е.В.Ерохина // Юридический факт. 2021. № 124. С. 3-5.
9. Иоффе О.С. Советское гражданское право. – М.: 1965. – С. 260; Поссе Е.А., Фадеева Т.А. Проблемы семейного право. Учебно методическое пособие для студентов заочного отделения. – Ленинград: ЛГУ, 1976. – С. 83;
10. Нечаева А.М. Семейное право. Курс лекций. – М.: Юрист, 1998. – С. 251.
11. Нечаева А.М. Семейное право. Курс лекций. – М.: Юрист, 1996. – С. 248.